



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASI VA UNING MAQOLLARDA IFODALANISHING AHAMIYATI

Q.Kaxarov

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

M.Alimbaev

Lingvistika: ingliz tili 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8031451>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2023 yil

Ma'qullandi: 08-June 2023 yil

Nashr qilindi: 13-June 2023 yil

KEY WORDS

olam manzarasi, maqol, mentalitet, urf-odat, stereotip, obraz, madaniyat, jamiyat, milliy ruh, turmush-tarz..

ABSTRACT

Ushbu maqola jamiyatda til, ya'ni lingvistika sohasining ahamiyati va aynan u orqali qolgan barcha sohalarning nomlanishi va tasvirlanishi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada olam manzarasi turli jihatlaridan taqqoslanadi: turli xalqlarda u bo'yicha tasavvur qandayligi va ushbu tasavvur qanday shakllanganligi haqida fikr yuritiladi. Olamning lisoniy manzarasi aks etgan maqollardan namunalar keltiriladi va izohlanadi.

Garchi fizika, astronomiya, tabiatshunoslik kabi aniq fanlarda olam manzarasi aniq faktlar bilan tasvirlangan va barcha insonlar uchun umumiy qoidalar orqali tushuntirilgan bo'lsa-da, tilshunoslik sohasida olamning lisoniy manzarasi turli tillarda turlicha ifodalanadi.

Albatta, bu masala tillarning etnolingvistika, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika va lingvokulturologik jihatlari bilan keskin bog'liqdir. Chunki til hechqachon o'z-o'zidan yaratilmaydi, o'z-o'zidan rivoj topmaydi. Til va madaniyat, til va psixologiya, til va jamiyat, til va millat va shuningdek, stereotiplarning o'zaro mushtarakligi, bir-biriga bog'liqligi, o'zaro ta'siri har qanday lingvistik tushunchaning yaratilishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Olamning lisoniy manzarasi mavzusi ham bundan chetda qolmaydi, albatta.

Ma'lumki, olamning lisoniy manzarasi deyilganda insonning olam bo'yicha to'plagan bor bilimlari, nazariy asoslari va har bir insonning olamga bo'lgan turlicha munosabati nazarda tutiladi, ya'ni dunyoning qanday tuzilgani, Yer, Quyosh va koinot nimalardan iborat ekanligidan tortib, zamonaviy dunyoning robotlari haqidagi tasavvurlargacha olam manzarasi va uning taraqqiyotiga kiradi. Bashariyat taraqqiyoti asnosida odamlar borliq tuzilishi haqidagi tasavvur va bilimlarini boyitib bordi. Natijada uzoq ajdodlarimiz dunyoni shunchaki okean o'rtasida joylashgan yassi Yer ko'rinishida tasavvur qilgan bo'lsa, sivilizasiyaning hozirgi bosqichida olamning galaktikada joylashgani va o'z o'qi atrofida aylanishi endi insoniyatga sir emas. Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg'un, o'zgarmas tuzilma emas, yuqorida aytilganidek, u tafakkur taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog'liq ravishda o'zgarib, mukammallashib borishi mumkin.

Albatta, bu o'rinda har bir insonning millati, urf-odatlari, mentaliteti, stereotipi va tili ulkan ahamiyat kasb etadi.¹ I.Gerderning 1770-yilda yozilgan "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

Chunki V. fon Gumboldning "Tilda xalq ruhi aks etadi" degan fikri N. Mahmudovning asarlarida o'ziga xos tarzda davom ettirilganini ko'rish mumkin: "...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning borbudi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmunu mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixiy kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz". Buyuk nemis tilshunos olimi² Yakob Grimmning "Xalq haqidagi saqlanib qoladigan eng jonli guvoh – bu uning suyagi, foydalangan ish qurollari yoki qabri emas, balki uning tilidir" degan fikrini shunday rivojlantiradi: "Xalq o'z tili haqida uning ibtidosidan boshlab ma'lumotga ega bo'lsa, bu tilning turfa tovlanishlari-yu, tarang va lo'nda mantig'ini chuqur his eta olsa, o'zining uzoq va murakkab tarixini ham chuqur his eta oladi, tarixidan faxrlana oladi, o'zinikidan boshqa tillarning xam muqaddasligiga, har jihatdan hurmatga loyqligiga imon keltira oladi. Bu esa xalqning o'zligini anglashi demakdir". Shuningdek, Ayrim tilshunoslarning bu boradagi quyidagi fikrlarida ayni haqiqat o'z aksini topgan: "Olamning lisoniy manzarasi maxsus olam manzaralari (kimyoviy, fizikaviy va boshqalar) bilan bir qatorda turmaydi, olamning lisoniy manzarasi ulardan oldin bo'lib, mazkur manzaralarni shakllantiradi, chunki inson til tufayligina olamni va o'zini anglash qobiliyatiga ega... Tilning o'ziga xosligiga ko'ra uning sohiblari ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi paydo bo'ladi, chunki inson til prizmasi orqali dunyoni ko'radi". Demakki, xalqning dunyoni milliy ko'rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi.

Shunday ekan, til orqali inson olam lisoniy manzarasini tasavvur etsa, uning shakllanishi esa insonning qanday muhitda istiqomat qilayotganiga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, o'zbek xalqida "Humo" qushi tinchlik, baxt va boylik ramzi deya e'tirof etiladigan bo'lsa, Amerika xalqi oq boshli burgutni juda muqaddas deb bilishadi va bu qush allaqachon amerikaliklarning "milliy qushi" deya tan olingan. Xuddi O'zbekiston davlat gerboda Humo tasviri joylashganidek, oq boshli burgut tasviri ham mamlakatning gerbida, prezident shtandartida (bayrog'i), banknotlarda va boshqa davlat atributlarida, shuningdek milliy korporatsiyalarning logotiplarida ham uchraydi. Demak, amerika va o'zbek xalqlari tinchlik deganda, avvalo, ushbu tasvirlarni olam manzarasi sifatida yod etishadi.

Agar ushbu hodisa maqollarda aks etgan bo'lsa-chi?

Barchamizga ma'lumki, Maqollarning aksar qismi milliy ongi stereotipi hisoblanadi. Odatda maqol va matallar folkloristikada janr sifatida o'rganiladi. Tilshunoslikda esa endigina o'rganilmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatli. Birgina maqolning o'zida ogohlantirish, tahqiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo'lishi mumkin, maqollar xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma'lumotlar

¹ I.Gerder "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asaridan

² Yakob Grimm, "Nemis tili tarixi" asaridan, 1848-yil

taqdim etadi. Ularda xalqning miqlari, odatlari, marosim va rasm-rusumlari, ma'naviyati haqidagi qarashlari o'zgarmay saqlangan bo'ladi. Tilshunoslar maqollar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o'z davri ideologiyasini aks ettiradi deb fikrlashlari, albatta, ayni haqiqat.

Misol uchun:

While there is life, there is hope.

Ushbu ingliz maqoli sodda va barcha uchun tushunarli so'zlar bilan yaratilgan va o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda "Hayot bor joyda, umid bo'ladi" ma'nosiga ega bo'ladi. Ammo o'zbek lingvokulturologiyasi uni boshqacha talqin etadi, ya'ni "shayton" obrazi bilan bog'laydi.

Noumid — shayton.

Islom dini ta'limotiga ko'ra, inson zoti borki, hamisha umiq qilib yashaydi, faqat shaytonga Allohdan hech narsa umid qilmaydi. Bu maqol orqali umidsiz inson shaytonga o'xshatiladi.

A bird in the hand is worth two in the bush.

Ushbu maqol esa so'zma-so'z tarjima qilinganida, "Butoqdagi ikkita qushdan qo'lingda turgan bittasi yaxshiroq" kabi ma'noni beradi. Biroq, o'zbek mentalitetida bu maqolga ham o'ziga xos ekvivalent bor.

Uzoqning bug'doyidan yaqinning somoni yaxshi.

O'zbek xalqida bug'doy rizq ramzi, aziz ne'mat non bilan tenglashtiriladi, somon esa uning poyasi, odatda uy jonivorlari uchun yemak vazifasini bajaradi. Biroq, agar o'zingniki bo'lmasa, bug'doydan ko'ra somon ham afzalroq degan ma'no kelib chiqadi ushbu maqolda.

When there's smoke, there's fire.

Ingliz xalqi faktlarga tayanib ish yuritadigan xalqlar sirasiga kiradi. Yuqorida keltirilgan maqol buning ayni dalilidir, ya'ni "tutun bor joydagina olov bo'ladi". Albatta, olov yonishidan avval tutun hosil qiladi, hodisalar ham shunday. Har bir voqea o'zidan o'chmas bir iz qoldiradi. O'zbek xalqida esa quyidagi maqol to'la mos keladi:

Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

Xalq orasida quyidagicha varianti ham tez-tez uchrab turadi.

Bir balosi bo'lmasa gulzorda quyruq na qilur.

Maqollarning barchasi ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanavermaydi. Jumladan, biror xalqqa, madaniyatga tegishli bo'lmagan, barcha etnoslar uchun birdek tegishli bo'lgan maqollar shu qatorga kiradi.

Misol uchun: All that glitters is not gold – Yaltiragan hamma narsa ham oltin bo'lavermaydi.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olam manzarasi, insonlarning olam bo'yicha tushunchasi ba'zida ularning turmush-tarziga qarab turib turlicha, ba'zida esa o'xshash bo'lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Gerder "Tilning kelib chiqishi haqida talqin"
2. Yakob Grimm, "Nemis tili tarixi"
3. Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. –М., 1977. –С. 233.

4. Кахаров, К. Ш. Узбек ва немис нуткий этикетларининг киёсий тадкики. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон-2020.
5. Kakharov, K. (2021). Use of "you" and "you"(polite form) parable in communication behavior between Uzbek and german families. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 199-203.
6. O'G'Li, K. K. S., & Ogli, A. M. K. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASI VA UNING MAQOLLARDA IFODALANISHING AHAMIYATI. Ta'lim fidoyilari, 2, 15-21.

